

OQ AKATSIYANING GULLASH BIOLOGIYASI

Turniyozova Nargiza Raxmatovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12789929>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oq(soxta) akatsiya o'simlining kelib chiqishi, biologik xususiyatlari, ahamiyati, sistematik xususiyatlari, klassifikatsiyasi, asalchilik xusuiyati, mavsumiy va sutkalik gullash biologiyasi o'rganilib, olingan natijalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Robinia pseudoacacia L., soxta akatsiya, oq akatsiya, areal, gullash biologiyasi, Engler sistematikasi.

БИОЛОГИЯ ЦВЕТЕНИЯ БЕЛОЙ АКАЦИИ

Аннотация: В статье изучены происхождение, биологические свойства, значение, систематические свойства, классификация, особенности пчеловодства, сезонная и суточная биология цветения растения белой (ложной) акации и представлены полученные результаты.

Ключевые слова: Robinia pseudoacacia L., ложная акация, белая акация, ареал, биология цветения, систематика Энглера.

FLOWERING BIOLOGY OF WHITE ACACIA

Abstract: In this article, the origin, biological properties, importance, systematic properties, classification, beekeeping characteristics, seasonal and daily flowering biology of the white (false) acacia plant are studied and the obtained results are presented.

Key words: Robinia pseudoacacia L., false acacia, white acacia, range, flowering biology, Engler systematics.

KIRISH

Vatani Shimoliy Amerikaning Appalachi tog'lari bo'lib, cheklangan arealga egadir. Yer yuzida 26 ta turi mavjud. Oq akatsiya toq-patsimon barglarga ega bo'lib, gullari besh tishli gulkosasiga va kapalaksimon gulbandiga ega. Mevasi ko'p urug'li yassi dukkak. Oq akatsiya issiqqa, yorug'likka talabchan bo'lib, hayotining dastlabki davrlarida tez o'sadi, 10-12 yoshidan boshlab o'sish tezligi pasayib ketadi va hosilga kiradi. Yaxshi aeratsiyaga ega yengil tuproqlarni ma'qul ko'radi, tuproq zichlashuvidan zarar ko'radi. Oq akatsiya daraxti qimmatli o'rmon meliorativ daraxt sifatida seleksiya obyekti bo'lib xizmat qilgan, uning shimoliy hududlarda o'sishga moslashgan sovuqqa bardoshli shakllari yaratilgan. Bryansk viloyati sharoitlarida oq akatsiya daraxtlari 40 yoshida 16 metr balandlikka o'sib, 30-60 sm diametrga ega bo'lgan.

ASOSIY QISM

Oq akatsiya Markaziy Osiyoga introduksiya qilinganiga 100 yildan oshib ketgan [4]. Oq akatsiyaning ildiz sistemasi juda moslashuvchan, o'q ildizidan tashqari gorizontol ipsimon ildizlari ona daraxtdan atrofga tarqalib o'sadi. Oq akatsiya qulay sharoitlarda 5-7 yoshidan boshlab hosilga kiradi, dukkagi oktabr oyida pishib yetiladi, dukkaklari bahorgacha to'kilmadan daraxtda saqlanib qoladi. Urug'lari qora rangda, yaltiroq, 1000 ta urug'ining og'irligi 20-25 g keladi. Urug'lari qattiq qobiqqa ega, shu sababli ularni ekishdan avval qaynoq suvda ivitish muhim agrotexnik tadbirlardan biri hisoblanadi. Unish qobiliyati yaxshi [1,3].

Oq akatsiya qurg'oqchilikka chidamli daraxt sifatida o'rmon melioratsiyasida keng qo'llaniladi, ayniqsa ihota o'rmonlari barpo etish uchun tavsiya etilgan eng muhim daraxt

turlaridan biri hisoblanadi. Yog‘ochi mustahkam, zichligi yuqori, shu sababli ham chirishga chidamli, undan stolba, shpal, ko‘prik bo‘laklari yasaladi [2].

METODLAR

O‘simlikning sistematik xolati Engler sistemasi bo‘yicha qilindi. Mavsumiy va sutkalik gullash biologiyasi Ponomaryov metodikasi bo‘yicha o‘rganildi. Fenalogik holati Rabotnov metodikasiga asosan o‘rganildi. Olingan natijalar Exsell 2014 dasturi yordamida tahlil qilindi.

NATIJALAR

O‘simlik Engler sistemasi bo‘yicha Gulli o‘simliklar bo‘limi, Burchoqdoshlar oilasiga mansub (1-jadval).

Soxta akatsiya yorug‘sevar o‘simlik bo‘lib, ochilgan gullari kunduzi ham, kechasi ham ochilib turadigan gullar toifasiga kiradi. Asalarilar yordamida changlatiladi. O‘simlikning gullash fazasi 14-16 kun davom etadi: birinchi gullash yilida quyosh sharoitidagi o‘simliklarda mart oyining oxiridan aprel oyining o‘rtalarigacha, ikkinchi yil gullaganda birinchi yilga nisbatan bir necha kun erta gulladi (1-rasm).

1-jadval

Sistematik katekoriyalar	O‘zbekcha	Lotincha
Bo‘lim	Gulli o‘simliklar	Magnoliophyta
Sinf	Ikki urug‘pallalilar	Magnoliopsida
Qabila	Burchoqnomalar	Fabales
Oila	Burchoqdoshlar	Fabaceae
Turkum	Akatsiya	Robinia
Tur	Soxta(oq) akatsiya	Robinia pseudoacacia L.

1-rasm. Soxta(oq) akatsiyaning gullash fazasi



XULOSA

Oq akatsiya atrof-muhitni ko‘kalamzorlashtiruvchi dekarativ o‘simlik bo‘lishi bilan bir qatorda asalchil, hamda yog‘ochbop o‘simlik hisoblanadi. O‘simlikning sutakalik gullash

biologiyasi kuzatilib olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, sutka davomida eng ko'p gullar kunning ikkinchi yarmiga ya'ni soat 14-16 oralig'iga to'g'ri kelib, 41% ni tashkil etdi. Bu o'simlik yorug'sevor o'simliklar qatoriga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev "DENDROLOGIYA" darslik, Toshkent-2012 268-269 b.
2. Xurramov O. G. Islamov BS SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L //NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. – T. 257.
3. Hojiyeva A., Xurramov O. Ziziphora tenuior o'simligining dorivorlik xususiyatlari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 8-10.
4. www.plantarium.ru